

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XALILOV MUXIDDIN SHAKIROVICH**

**TADBIRKORLIK IJTIMOYIY FUNKSIYASINING NAZARIY  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
Economical sciences**

**Xalilov Muxiddin Shakirovich**

Tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining nazariy asoslarini takomillashtirish.....3

**Халилов Мухиддин Шакирович**

Совершенствование теоретических основ социальной функции  
предпринимательства.....27

**Khalilov Mukhiddin Shakirovich**

Improving the theoretical foundations of the social function of  
entrepreneurship.....53

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XALILOV MUXIDDIN SHAKIROVICH**

**TADBIRKORLIK IJTIMOYIY FUNKSIYASINING NAZARIY  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023 yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/Iqt397 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Gafurov Ubaydullo Vaxabovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nabiyev Elshod Ganiyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Saidkarimova Matlyuba Ishanovna**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; [e-mail: tsue@tsue.uz](mailto:tsue@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-28-72; [e-mail: tsue@tsue.uz](mailto:tsue@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli ryestr bayonnomasi).

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**B.D. Xajiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., dotsent

**N.M. Maxmudov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (doktorlik dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon mamlakatlari tajribasi, ijtimoiy muammolarni ijobiy hal etishda, aholi turmush farovonligini oshirishda tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasidan foydalanish ijobiy natijalarga sabab bo'lishini namoyon etmoqda. Xususan, ishsizlarni ish bilan bandligini ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish, mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash, kambag'allik muammosini hal etish, hudud infratuzilmasini rivojlantirishda tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasidan foydalanishni amaliyotga joriy etilishi, jamiyat hayotidagi ijtimoiy muammolarni samarali hal etish imkoniyatini oshiradi. Bugungi kunda dunyo sahnida yangi iqtisodiy markazlarning vujudga kelishi, tadbirkorlik tuzilmalarini, jumladan, tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan tizimni takomillashtirib borish masalalarini o'rganishni dolzarb qilib qo'yimoqda.

Rivojlangan davlatlarda tadbirkorlikni rivojlantirishni, ular tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy funksiyalarni tadqiq etuvchi ko'plab ilmiy tadqiqot tuzilmalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish va tartibga solish bo'yicha shakllangan amaliy ko'nikma, to'plangan tajribalar, tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ijtimoiy masalalarni hal etishdagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini keng targ'ib etish hamda amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni rag'batlantiradi.

O'zbekistonda dunyo mamlakatlari bilan hamohang holda o'zgarishlar, rivojlanishlar davri ro'y bermoqda, aholining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ongi o'zgardi, tadbirkorlikka nisbatan ijobiy munosabat shakllandi va keng e'tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotida yuqori ahamiyat kasb etishi aksiomaga aylandi. Bu esa, o'z navbatida, tadbirkorlikni turli funksiyalari jumladan, ijtimoiy funksiyasini takomillashtirish va rivojlantirishda yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy muammolardan hisoblangan "mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish"<sup>1</sup>, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, "Davlat-inson uchun" tamoyili asosida "mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish"<sup>2</sup> kabi ijtimoiy vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda tadbirkorlik, kichik biznes sub'yektlarining ijtimoiy funksiyasidan samarali foydalanish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-3107036>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/docs/5841063>.

to'g'risida", 2022 yil 9 noyabrdagi PF-244-son "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 22 iyuldagi PQ-329-son "Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022 yil 9 iyundagi PF-150-son "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022 yil 21 yanvardagi PF-54-son "Respublika hududlarida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021 yil 24 dekabrdagi PQ-62-son "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"ni farmon va qarorlari, 2021 yil 21 dekabrdagi VMQ-765-son "Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", VMQ-596-son – "Kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlik sub'yektlarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 11 maydagi VMQ-252-son "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasining sohaga oid qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish, uni davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari bo'lib xizmat qildi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy jihatlari xorij olimlaridan A.Smit, J.B.Sey, R.Kantilon, Y.Shumpeter, R.Xizrich, M.Piters, M.G.Lapusta, Yu.L.Starostin, K.R.Makkonnell, S.L.Bryu, M.M.Xait<sup>3</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning umumiy jihatlari S.S.G'ulomov, Yo.Abdullayev, M.R.Boltabayev, Sh.J.Ergashxodjayeva,

---

<sup>3</sup> Сэй Ж.Б. Трактаты политической экономии. – М.: Экономика. 1985. – 55 с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Т.1.– М.: Ось, 1977. – 480 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1985. –159 с.; Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха. – М.: Прогресс, 1991. – 223 с.; Лапуста М.Г., Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. М.: Инфра-М, 1997. – С.87.; Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. В 2-х т. Т-1. – М., 2003. – 399 с.; Хамидуллин Ф.Ф. Развитие методологии исследования малого бизнеса // Проблемы современной экономики, №3(19), 2007.; Хайт М.М. Развитие малого бизнеса на основе реструктуризации крупных предприятий // Вестник Московского университета, сер. 6. Экономика, №4, 2006. – С.32-43.

Sh.Yuldashev, M.S.Qosimova, B.K.G'oyibnazarov, E.G.Nabiyev, M.I.Saidkarimova<sup>4</sup> va boshqa olimlarning ishlarida bayon etilgan. Kichik tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyot tarmoqlaridagi samaradorligini oshirish yo'llari va uni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari H.P.Abulqosimov, I.A.Bakiyeva, N.K.Murodova, A.A.Qulmatov<sup>5</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash masalalari B.Yu.Xodiyev<sup>6</sup> va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Shuningdek M.M.Abduraxmonova, U.V.Gafurov<sup>7</sup> o'z tadqiqotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratgan.

Biroq tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalari mustaqil mavzu sifatida chuqur tadqiq etilmagan. Tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalarini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi ushbu mavzuni tanlashga asos bo'ldi. Ushbu holat mazkur tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1 «O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashning ilmiy-metodik asoslari va usullarini takomillashtirish» yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** iqtisodiyotni isloh qilish jarayonida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi ko'lamini oshirish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

tadbirkorlikning funksiyalari mazmuni va asosiy turlari borasidagi nazariy qarashlarni tizimlashtirish asosida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini aniqlash;  
tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy funksiyasining asosiy yo'nalishlarini tadqiq etish;  
tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining baholashning uslubiy asoslarini tadqiq etish va takomillashtirish;

---

<sup>4</sup> Абдуллаев Ё. Кичик бизнес ва тadbirkorlik асослари. – Т.: Меҳнат, 2010. - 349 б.; Болтабаев М.Р., Қосимова М.С., Эргашходжаева Ш.Ж., Ғойибназаров Б.К., Самадов А.Н., Ходжаев Р. Кичик бизнес ва тadbirkorlik: Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2010. – 275 б.; Ходжаев Р., Эгамбердиев А. Кичик бизнес ва тadbirkorlik. – Т.: Иқтисод-молия, 2008. – 105 б.

<sup>5</sup> Абулқосимов Ҳ.П. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тadbirkorlikнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. Монография. – Т.: Университет, 2015. – 126 б.; Бакиева И.А. Ўзбекистон енгил саноатида кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни ривожлантириш. Дис. ... икт. фан. номз. - Т., 2012.; Муродова Н.К. Кичик бизнес субъектларининг тadbirkorlik фаолиятини ошириш йўналишлари. Дис. ... икт. фан. номз. – Т., 2008.; Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик тadbirkorlik фаолиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-иқтисодий муаммолари. Дис. ... икт. фан. номз. – Т., 2004.

<sup>6</sup> Ходиев Б.Ю. Ўзбекистон иқтисодиётида тadbirkorlik ривожланишини эконометрик моделлаштириш. Дис. ... икт. фан. д-ри. - Т., ТДИУ. 2000. - 338 б.

<sup>7</sup> Абдурахмонова М.М. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik субъектлари фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлашни такомиллаштириш. Дис. ... икт. фан. номз. - Ф., 2012.; Гафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Дис. ... икт. фан. докт. - Т., 2017.

O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyatida ijtimoiy funksiyani amal qilishini rivojlanganlik darajasini baholash;

tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini amal qilish tendensiyalarini ochib berish;  
tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini bandlikni ta’minlashdagi ahamiyatini ochib berish va ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

O‘zbekistonda tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi samaradorligini oshirishda bozor mexanizmini tadqiq etish;

O‘zbekistonda tadbirkorlik ijtimoiy funksiyalarini amal qilish mexanizmini takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularni tavsiflovchi hodisa va jarayonlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasi amal qilishi va mexanizmlarini rag‘batlantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik bayon usuli, iqtisodiy-statistik tahlil, statistik ma’lumotlarni taqqoslash va guruhlash, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi” kategoriyasi mazmuni jamiyat a’zolarining yetarli darajada turmush faoliyati hamda shaxsiy kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashning muntazam ravishda takror hosil qilish tavsifini kiritish asosida takomillashtirilgan;

hududda yangi ish o‘rinlarini yaratishda mavjud ijtimoiy muammolarni hal etish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kooperatsion jarayonlarni ilgari surish bo‘yicha biznes rejaga ega yetakchi tadbirkorlarga davlat jamg‘armalari tomonidan 75 foizgacha kafillik berish taklif etilgan;

kasanachilik tadbirkorligini rag‘batlantirish maqsadida ijtimoiy daftarlarga kiritilgan fuqarolarni kasanachilik tadbirkorligini amalga oshirishlari uchun asbob-uskuna, jihozlar sotib olishda ularga sarflanadigan xarajatlarning 50 foizgacha bo‘lgan qismini subsidiya ko‘rinishida qoplash taklif etilgan;

O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni muvofiqlashtirish orqali 2030 yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi tushunchasining iqtisodiy mazmuni, uning turlari va xususiyatlari, yondashuvlarni tizimlashtirish asosida mazkur tushunchaning mualliflik ta’rifi shakllantirilgan;

tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi uning faoliyati rivojlanishiga ta’siri tadqiq etilgan;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi darajasini baholash borasidagi mavjud uslubiy yondashuvlar tizimli ravishda tahlil etilib, ilmiy yo‘nalishlar aniqlangan;

kichik tadbirkorlik faoliyatini ijtimoiy funksiyalarini amal qilishini bandlik darajasiga ta'siri tadqiq etilgan;

tadbirkorlik ijtimoiy funksiyalari aholi daromadlari va turmush farovonligini ortishidagi ahamiyati ochib berilgan;

tadbirkorlik ijtimoiy funksiyalarini samarali amal qilishida o'rta qatlamni tutgan o'rni va bozor dastaklari ahamiyati aniqlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarning ishonchligi** unda qo'llanilgan yondashuv va usullarning xorijiy va milliy olim va mutaxassislarning mazkur muammoga nisbatan nazariy-uslubiy yondashuv va qarashlariga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Savdo-sanoat palatasining statistik ma'lumotlari va davriy hisobotlaridan olingani, tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan asosiy taklif va tavsiyalardan kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlari ijtimoiy funksiyalarini takomillashtirishga oid tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy apparatini ishlab chiqish, mavzuga oid ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlari ijtimoiy funksiyalarini me'yoriy-tashkiliy jihatdan tartibga solish, tarmoq va hududiy dasturlarni takomillashtirish, sohani yanada rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari ijtimoiy funksiyalarini kengaytirish va takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar asosida:

“tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi” kategoriyasining mazmun-mohiyati ochib berilgan, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy jarayonlarni samarali amal qilishida tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ijobiy hal etishdagi ustunliklari aniqlangan va yondashuvga ko'ra takomillashtirilgan, “tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi” tushunchasining ta'rifi oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan “Davlat iqtisodiyoti va siyosati” nomli o'quv qo'llanmasiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 18 avgustdagi 356-sonli buyrug'i; ro'yxatga olingan raqami №356/7-3314). Buning natijasida talabalarda tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi, zamonaviy tadbirkorga qo'yilgan talablar va funksiyalarni aniqlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish imkoni yaratilgan;

yetakchi tadbirkor sifatida namoyon bo'lgan, ijtimoiy muammolarga e'tibor qaratib yangi ish o'rinlarini yaratayotgan, tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kooperatsion jarayonlarni ilgari surish bo'yicha biznes rejaga ega tadbirkorlarga davlat jamg'armalari tomonidan kafillik berish tartibi bo'yicha taklifidan Savdo-sanoat palatasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021

yil 9 avgustdagi 504-son “Hududlarda “mahallabay” ishlash asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirish orqali kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 13 fevraldagi 11/02-12-1335-son ma‘lumotnomasi). Taklifni amaliyotga joriy qilinishi natijasida yetakchi tadbirkorlik sub’yektlariga Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan kafillik berilishi belgilangan;

tadbirkorlikni rag‘batlantirish maqsadida ijtimoiy daftarlarga kiritilgan fuqarolarni kasanachilik tadbirkorligini amalga oshirishlari uchun asbob-uskuna, jihozlar sotib olishda subsidiya ko‘rinishidagi moddiy yordam ko‘rsatish taklifi Savdo-sanoat palatasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 oktabrdagi 596-son “Kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlik sub’yektlarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 13 fevraldagi 11/02-12-1335-son ma‘lumotnomasi). Taklifni amaliyotga joriy qilinishi natijasida tadbirkorlik sub’yektlariga “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoki “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”da bo‘lgan va kasanachilik bilan shug‘ullanayotgan fuqarolarga asbob-uskunalar xarid qilib berish xarajatlari uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom ishlab chiqilgan;

tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyalarini nazariy asoslarini takomillashtirish sharoitida unga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni muvofiqlashtirish orqali 2030 yilgacha prognoz ishlab chiqilgan. Mazkur prognoz Savdo-sanoat palatasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 83-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori milliy maqsad va vazifalarga erishilishini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan yo‘l haritasiga kiritilgan. (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 13 fevraldagi 11/02-12-1335-son ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy prognoz tadbirkorlikni kengaytirish orqali ishsizlik darajasini 2% atrofida pasaytirish imkonini ko‘rsatib bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 137 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining mazmuni va samaradorligini baholashning uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasining mazmuni va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi roli, uning funksiyasi xususiyat va asosiy tamoyillari, tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining samaradorligini baholashning uslubiy asoslari tadqiq etilgan.

Aholi turmush farovonligini, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda tadbirkorlik asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadbirkorlik qadimiy faoliyatlardan hisoblansada, uni ilmiy tadqiq etish va nazariy asoslarini shakllanishi o'rta asrlarga kelib g'arbda shakllandi. Tadbirkorlikka nisbatan ko'plab ta'rif va yondashuvlar mavjud, qadimda antik davrda unga nisbatan salbiy qarashlar ustunlik qilgan bo'lsa, R.Kantilon tadbirkor tavakkalchilik sharoitida faoliyat yurituvchi shaxs ekanligini ta'kidlaydi, klassik maktab vakili A.Smit tadbirkorlikka nisbatan e'tiborsiz bo'ldi. XX asrga kelib Y.Shumpeter tadbirkorlikka nisbatan yangicha yondashuvga asos soldi, tadbirkorlik innovatsiyalar, ishlab chiqarish omillarining yangi birikmasini amalga oshirish ko'rinishida namoyon bo'ldi.

XX asrning oxirlarida neoliberal konsepsiya ustivorlikka erishdi, ijtimoiy, iqtisodiy sohalar erkinligi yuz berdi, ijobiy ko'rsatkichlar bilan birga, muvozanatlik va mutanosibliklarni buzilishi natijasida ijtimoiy kamchiliklar, kambag'allik muammosi paydo bo'ldi. Jamiyatda to'planib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy kamchilik va muammolarni yechimini topishida, tadbirkorlik xususan uning ijtimoiy funksiyalarini amal qilish mexanizmi ishga tushirilishi kerak.


Tadbirkorlik davlatni iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy farovonligini ta'minlash doirasida: iqtisodiy, innovatsion, resurs, tashkiliy va ijtimoiy funksiyalarni amalga oshiradi. Tadbirkorlik funksiyalari doimiylik tavsifiga ega bo'lgan holda, iste'molchilar uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, yangi g'oya, yangi vosita, omil va texnologiyalarni shakllantirish, resurs va ishlab chiqarish omillarini oqilona va samarali birlashtirish, taktik va strategik maqsadlarni amalga oshiradi.

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi ko'pchilik tomonidan tan olinishi XX-asrning 80-90-yillariga kelib yuz berdi<sup>8</sup>. Bu bevosita tadbirkorlar tomonidan hal etilayotgan ijtimoiy muammolar yalpi hajmini ortishi bilan tavsiflanadi. Mazkur davrda birinchidan davlatning imkoniyatlarini cheklanganligi yaqqol namoyon bo'la boshlagan bo'lsa, boshqa jihatdan esa, ijtimoiy muammolarning ko'payishi va keskinlashishi bilan bog'liq. Shu bilan birga bozor mexanizmi jamiyatning barcha ijtimoiy muammolarini samarali hal eta olmasligini ifodalaydi.

---

<sup>8</sup> Плюхина, А. А. Развитие системы государственного регулирования и поддержки проектов в сфере социального предпринимательства. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2018.

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi jamiyatda tadbirkorlarni ko‘payishi, ish joylarni tashkil etilishi, ishchilar turmush darajasi va ijtimoiy holatini yaxshilanishiga xizmat qiladi.



**1-rasm. Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi evolyutsiyasi<sup>9</sup>.**

Muallif fikriga ko‘ra, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini evolyutsiyon nuqtai-nazardan 3 bosqichga ajratish mumkin. Dastlabki bosqich klassik tadbirkorlik bo‘lib, bu davrda tadbirkorning maqsadi boyish va boyluk to‘plashga yo‘naltirilgan, ikkinchi bosqich ijtimoiy-iqtisodiy tadbirkorlik bo‘lib, bu davrda tadbirkor nafaqat moddiy boyish, balki nomoddiy manfaatni ham ko‘zlab faoliyat yuritadi. 3-bosqich, ijtimoiy tadbirkorlikni, mustaqil shakl sifatida ajralib chiqishi hisoblanib, undan ko‘zlangan maqsad nomoddiy manfaatni ustunligidir.

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini bajarilish darajasi, mamlakatda amal qilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimga, yuritilayotgan ijtimoiy siyosatga bog‘liq bo‘ladi.

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi – tadbirkorlikning faoliyat belgi va tamoyillariga asoslangan holda jamiyat a‘zolarining yetarli darajada turmush faoliyati hamda shaxsiy kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlashga yo‘naltirilgan muntazam ravishda takror hosil qilinuvchi jarayon<sup>10</sup>.

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasini quyidagicha guruhlash mumkin:

- 1) tadbirkorlikka bo‘lgan ishtiyoqni shakllantirish va tadbirkorlarni ko‘paytirish;
- 2) yangi ish joylarini tashkil etish;
- 3) maqbul daromadlarni shakllantirish;
- 4) qulay mehnat sharoitlarini tashkil qilish;
- 5) aholi uchun ijtimoiy infratuzilmani yaratish.

Ye.E. Kabanovning fikriga ko‘ra, sobiq ittifoq davrida ijtimoiy masalalarni hal etishda noto‘g‘ri yo‘l bilan borildi, mavjud aholini ijtimoiy muammolari asosida emas balki, sinfiy bo‘lishlar orqali amalga oshirildi<sup>11</sup>.

<sup>9</sup> Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

<sup>10</sup> Muallif ta‘rifi.

<sup>11</sup> Кabanова Е.Е. Проблемы развития социальной инфраструктуры средних городов в современной России (на примере города Гусь - Хрустальный). Материалы Ивановских чтений. 2015. № 5. С. 29-34.

G'arb mamlakatlarida ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan ijtimoiy tadbirkorlik "an'ana" tusiga kirgan, bizning mamlakatimizda esa, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi yoki ijtimoiy tadbirkorlik haqida nafaqat aholi, balki tadbirkorlar ham yetarli ma'lumotga ega emas.

Rossiya Federatsiyasida tadbirkorlarning faqatgina 1% ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug'ullanadi, g'arb mamlakatlarida esa uning ulushi 25% ni tashkil qiladi<sup>12</sup>. O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikning huquqiy asoslari mavjud emas ekan, tadbirkorlikni ijtimoiy funksiyasini keng targ'ibotini amalga oshirish orqali, ijtimoiy jarayonlardagi ulushini ko'paytirishimiz mumkin.

Davlatlarda amal qilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy modellar asosida tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi shakllanadi.

Sotsial-demokratik model amal qilganda, tadbirkorning ijtimoiy funksiyasi yangi ish joylarini shakllantirish bo'ladi, qashshoqlik masalasi davlat tomonidan ajratiladigan ijtimoiy yordam hisobiga bartaraf etiladi.

Konservativ modelda, qayta taqsimlash ahamiyatsiz, ishsiz aholi ijtimoiy huquqqa ega emas, faqat hayriyalarga bog'lanib qolganligi sabab, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi aholini ish bilan band qilish orqali ularni ijtimoiy sug'urta muammosini hal qiladi.

Liberal (amerika-britancha) modelda asosiy e'tibor bozorga qaratiladi, bu jamiyatda insonlar ijtimoiy himoyasiz yashab qolish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak, davlat barcha fuqarolar uchun cheklangan ijtimoiy ta'minotga mas'ul. Muhtojlar ko'plab beg'araz va noodatiy yordamga tobedir, ijtimoiy muammolarning hal etilishi ijtimoiy tadbirkorlikka asoslanadi.

Lotin (katolik) modelda inson o'ziga o'zi yordam berishi kerak, ular oila yoki qarindoshlar ko'magiga tayanadi. Keyingi instansiya bo'lib mahalliy jamiyat, qo'shnilariga murojaat qiladi, cherkov va tashkilotlardan yordam so'raydi. Bu ham bo'lmasa sug'urta xizmatlaridan foydalanadi, davlat sektori oxirgi instansiya bo'lib hisoblanadi.


Yuqoridagi tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasining xususiyatlari va turli ijtimoiy modellar sharoitida amal qilishlari xususidagi fikr-mulohazalar asosida, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyalari quyidagi tamoyillarga asoslangan holda amal qilishlari maqsadga muvofiqligi kelib chiqadi:

- 1) inson yoshi, mehnatining unumdorligidan qat'iy nazar bir hilda qadrlanishi kerak, ya'ni barchaga ijtimoiy yordam ko'rsatish tamoyili;
- 2) ijtimoiy yordamning doimiylik tamoyiliga ega bo'lishi;
- 3) ijtimoiy yordam barcha sharoitlarga moslashuvchan bo'lishi, ishchilar ijtimoiy sharoitlarini tenglashtirishga yo'naltirilishi.

Tadbirkor tomonidan ijtimoiy tamoyillarga amal qilinishi, ijtimoiy funksiyalarni bajarilishi ikkita muhim omillarga bog'liq bo'ladi. Bu omillar birinchidan, tadbirkor tomonidan foyda ko'rishi, ikkinchi jihati, ijtimoiy maqsadni mavjudligi va amalga oshirilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ularning o'zaro muvozanati tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi mazmun-mohiyatini belgilaydi, uning asosida tadbirkorlikning ijtimoiy faoliyati belgilari shakllanadi (1-rasm).

---

<sup>12</sup> Харченко А. А. Социальное предпринимательство в России. Бизнес-образование в экономике знаний: межд.науч.эл.журнал. Иркутск, № 3[11] 2018.



**1-rasm. Tadbirkorlik faoliyatida ijtimoiy funksiya belgilarini namoyon bo'lishi<sup>13</sup>**

Tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi bugungi kunning hayotiy g'oyasiga aylanishi kerak. Chunki tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi o'zbek tadbirkori tomonidan o'zini anglash, innovatsiya va maqsad sari intilish, imidjni shakllantirishini ifodalaydi. Huddi shu maqsad va yo'nalishdagi tadbirkorlar "Yangi O'zbekiston"da rivojlanishning yangicha modellarini ilgari suraoladilar.

Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi oldiga qo'yilgan maqsadlariga erishganlik darajasi bilan baholanadi. Tadbirkor maqsadga erishish uchun insonlarni birlashtiradi, resurslarni jalb qiladi va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish jarayonini amalga oshiradi.

Samaradorlik turli mazmunda foydalaniladi, G.Emirson yondashuviga ko'ra albatta funkcionallik sharti bajarilishi kerak. Bu o'z navbatida, natijani xarajatga taqsimlash kabi samaradorlikni aniqlashdagi cheklangan munosabatni o'zgarishiga imkon beradi.

## 1-jadval

### G.Emirson yondashuviga ko'ra samaradorlik tamoyillari<sup>14</sup>

1-tamoyil	Aniq qo'yilgan maqsad yoki kompaniya maqsadlari
2-tamoyil	Sog'lom muhit, fikr
3-tamoyil	Vakolatli maslahat (Komponent konsultatsiya)
4-tamoyil	Tartib-intizom
5-tamoyil	Personalga nisbatan haqqoniy munosabat
6-tamoyil	Tez, ishonchli, to'liq, aniq va doimiy hisob
7-tamoyil	Logistika (faoliyatni koordinatsiyalash, dispecherlik)
8-tamoyil	Me'yor va jadval (mehnat faoliyati bo'yicha)
9-tamoyil	Mehnat sharoitlarni me'yorlashtirish (mehnat qilish, xavfsizlik qoidalari)
10-tamoyil	Jarayonlarni me'yorlashtirish (vaqt, xarajat)
11-tamoyil	Standart yozma instruksiyani mavjudligi
12-tamoyil	Mehnat unumdorligini rag'batlantirish

<sup>13</sup> Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

<sup>14</sup> Harrington Emerson - The Twelve Principles of Efficiency - маълумотлар асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

G.Emirson tomonidan ilgari surilgan tamoyillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak (1-jadval), tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi bevosita ijtimoiy omillarga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Umumiy holda ijtimoiy samaradorlikni o'lchash yoki baholashda ushbu jarayon ishtirokchisi, aloqador sub'yekt va jamiyatda aholining turmush darajasini ko'tarilishi, sifat jihatidan yaxshilanishi kabi natija va samaralar hisobga olinadi.


Tadbirkorlikning ijtimoiy samaradorligini obyektiv hisoblash murakkab jarayon bo'lib, u miqdoran (pulda) ifodalanishi mumkin bo'lgan ijtimoiy natija hamda tadbirkor oladigan nomoddiy tavsifdagi naf yig'indisining mazkur ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan sarflar (pul mablag'lari) nisbati sifatida namoyon bo'lishi mumkin:

$$I_s = \frac{I_n + N_n \times k}{I_m}$$

bu yerda:

- $I_s$  – tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy samaradorligi;
- $I_n$  – faoliyat ta'sirida olingan ijtimoiy natijaning puldagi ifodasi;
- $N_n$  – nomoddiy tavsifdagi naf;
- $K$  – nomoddiy tavsifdagi nafni miqdoran (pulda) ifodalash koeffisienti;
- $I_m$  – ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan mablag'.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda tadbirkorlik ijtimoiy funksiyasining samaradorligi holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadbirkorlik sub'yektlarining aholi bandligini ta'minlashdagi ishtiroki, aholi daromadlari va turmush farovonligini oshirishda kichik tadbirkorlikning roli, o'rta mulkdorlar qatlamini tarkib topishida kichik biznes va tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanish darajasi tadqiq etilgan.



## 2-rasm. Aholini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini rag'batlantirish mexanizmi<sup>15</sup>.

Aholini tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish mexanizmini joriy etilishi va uni samarali amal qilishi mamlakatimizda yangi tadbirkorlik sub'yektlarini paydo bo'lishiga imkon bermoqda (3-jadval). Bu o'z navbatida mamlakatda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini yangi biznes ishtirokchilari, biznes turlari bilan boyitish va yo'nalishlarini shakllanishiga imkon beradi. Shu bilan birga ijtimoiy muammolar bo'lgan ishsizlik va kambag'allik muammolarini hal etishda asosiy yechim yuzaga keladi.

### 3-jadval

#### O'zbekiston hududlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik<sup>16</sup>

Hududlar	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>179693</b>	<b>221140</b>	<b>225998</b>	<b>225560</b>	<b>242379</b>	<b>276237</b>	<b>353921</b>	<b>436981</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8282	10609	10617	10331	11076	12364	15050	18923
Andijon	16012	22802	23848	23063	21631	23978	28880	35795
Buxoro	12381	12420	12571	12594	13495	15700	20982	26097
Jizzax	5752	8625	9200	9065	10069	11845	14769	18661
Qashqadaryo	16998	17492	15890	14614	14969	16752	20921	26088
Navoiy	5738	6798	7089	6992	7788	9143	15511	19058
Namangan	11872	15122	15731	16055	16928	17944	22034	27314
Samarqand	13698	15096	15375	15389	17261	20669	27322	35022
Surxondaryo	11371	11344	10292	10159	10897	11670	15783	22670
Sirdaryo	5152	7072	7281	7668	8064	8947	11697	14256
Toshkent	14098	21741	23102	23088	25128	29390	38006	45935
Farg'ona	14295	18036	18775	18192	20502	23542	29599	37199
Xorazm	10368	10762	10737	10726	11345	12576	16282	20177
Toshkent sh.	33676	43221	45490	47624	53226	61717	77085	89786

Mamlakatimizda tadbirkorlik sub'yektlari sonini yildan-yilga ortayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu o'z navbatida mazkur sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashlar natijasidir. Davlat tadbirkorlik sub'yektlariga yordam ko'rsatish shakllari bo'lgan subsidiya va imtiyozlar orqali aholini faol qismini tadbirkorlikka rag'batlantiradi, natijada yangi ish joylarini shakllanishi, ishsizlarni bandligini ta'minlash bilan birga boqimandalik kayfiyatidan chiqishga undaydi.

Har bir hududda yuqori natijalarga erishgan, o'z ishining mutaxassisi bo'lgan yetakchi tadbirkorlik sub'ekti mavjud, ular ishsiz fuqarolarni ish bilan band qilishda, hududiy infratuzilmani yaxshilashda ishtiroki yuqori, bunday yetakchi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish maqsadida moddiy

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4862-son asosida muallif ishlanmasi.

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari.

mablag'larni jalb etishda kafillik tizimini ularga nisbatan joriy qilish, tadbirkorlik sub'ektlarini ko'payishiga xizmat qiladi va yangi ish o'rinlarini tashkil etishdagi hissasini ortishiga asos bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan o'tgan davr mobaynida Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining jami 2657 milliard so'mlik 913 ta kreditlari uchun 1003 milliard so'm, Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining jami 2 160 milliard so'mlik 1345 ta kreditlari uchun 730 milliard so'm, Andijon viloyati faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining jami 1974 milliard so'mlik 1 209 ta kreditlari uchun 848 milliard so'm, Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining jami 1519 milliard so'mlik 1579 ta kreditlari uchun 591 milliard so'm kafillik moliyaviy yordami taqdim etildi<sup>17</sup>.

#### 4-jadval

#### O'zbekiston hududlari bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar soni, ming kishi<sup>18</sup>

Hududlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>10541,5</b>	<b>10128,8</b>	<b>10318,9</b>	<b>9865,7</b>	<b>10070,7</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	486,0	532,8	532,9	524,9	521,6
Andijon	1110,4	1035,3	1054,6	989,9	1020,0
Buxoro	648,7	619,8	606,9	590,5	576,8
Jizzax	378,7	384,5	427,2	418,7	434,1
Qashqadaryo	973,9	965,8	958,1	914,1	943,7
Navoiy	250,6	229,3	227,0	207,4	214,5
Namangan	863,9	872,3	914,7	888,4	907,7
Samarqand	1286,9	1216,1	1205,5	1158,4	1174,7
Surxondaryo	802,6	781,0	814,9	770,3	785,5
Sirdaryo	278,4	274,2	267,4	247,5	248,7
Toshkent	968,5	898,8	897,8	833,3	853,3
Farg'ona	1229,3	1144,5	1185,0	1136,3	1164,7
Xorazm	599,2	573,4	591,9	567,9	574,3
Toshkent sh.	664,4	601,0	635,0	618,2	661,0

Tadbirkorlik sektorining afzalliklaridan biri, ularning kichik mahallalar bilan bog'liqligida o'z ifodasini topadi, ya'ni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish iste'molchilarga qulay joyda joylashganligi, ishchilarni ortiqcha kuch va harajatlarsiz jalb etilishi, kelib ketishlarining qulayligi kabilar, hattoki eng qiyin ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarda, inqiroz holatlarida ham o'z ustunligini ifodalaydi, ya'ni bandlik darajasi keskin pasayishini oldini olish imkoniyatini mavjudligi va vaziyat yaxshilanishi bilan qayta tiklana olishida.


Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi aholi turmush farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu o'z navbatida ularning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa ehtiyojlarini qondirilganlik, ta'minlanganlik darajasi

<sup>17</sup> Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi - <https://statefund.uz/uz/about/tasks/guarantee/>

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari.

orqali ifodalanadi. Insonlarning hayotiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun ularning daromad manbalarini shakllantirish zarur.

Mazkur jarayonda kasanachilik tadbirkorligini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Aholi daromadlarini oshirishda kasanachilikni subsidiyalash tamoyili asosida aholi bandligini ta'minlash va daromadlarni oshirish mexanizmi joriy etildi (3-rasm).



### 3-rasm. Kasanachilikni subsidiyalash orqali aholi daromadlarini oshirish mexanizmi<sup>19</sup>

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Prezident Farmonining 29-maqsadida "Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish"<sup>20</sup> nazarda tutiladi, 37-maqсадida "Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish" kerakligi o'z ifodasini topgan<sup>21</sup>.

<sup>19</sup> <https://lex.uz/docs/6389635> - asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.



2019 yilda mamlakatimizda o'rtta mulkdorlar 28-30% ni tashkil qilgan. Bugungi kunda aholining 45-48% o'rtta mulkdorlar sinfi zahirasini tashkil qiladi, ularga yordam ko'rsatilishi ularni o'rtta mulkdorlar qatorida bo'lishiga imkon beradi aks holda kam ta'minlanganlar qatlamini ko'payishiga sabab bo'ladi. Ularni o'rtta mulkdorlar sinfiga o'tishida ijtimoiy zina vazifasini bajaruvchi hisoblangan tadbirkorlik tizimida yangi imtiyoz va yengilliklarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasi statistik ma'lumotlarida, kichik tadbirkorlik sub'yektlari daromadlari o'rtacha daromaddan 3,4 marotabaga ko'p, o'rtacha aholi jon boshiga hisoblaganda esa, yollanma ishchilar daromadlaridan 3,9 marotaba katta ekanligi ta'kidlanadi<sup>24</sup>.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik moddiy ta'minot jihatidan farqlanuvchi aholi qatlamlari o'rtasida bo'lishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy ziddiyatlarni oldini oluvchi sub'yekt vazifasini bajaradi. Kichik biznes va tadbirkorlik o'zining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib aholining moddiy ta'minlangan va kam ta'minlanganlar o'rtasida ularni bog'lovchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Ya'ni moddiy ta'minoti yaxshi bo'lgan jamiyat a'zolari resurslarini jalb qilgan holda tadbirkorlikni yo'lga qo'yadi kam ta'minlangan insonlarni, ishsizlarni ish bilan band qilish orqali ularni daromad manbaiga ega bo'lishiga imkon yaratadi.

